

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori

O.SH.Bazarov
2024 yil

Res'yxatga olindi № 85/02/032

17 iyun 2024 yil

“IJTIMOIY SOHA IQTISODIYOTI”

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 - Ijtimoiy fanlar, jumalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000 - Ijtimoiy va xulq-atvorga moyil fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar
bo'yicha)

Phi'an/modul kodi FORLAN 6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov fani	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Ijtimoiy soha iqtisodiyoti	76	104	180

I. FANNING MAZMUNI

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya masalasi davlat siyosati markazida turadigan asosiy masalalardan biridir. Kuchli ijtimoiy siyosat respublika iqtisodiyotini isloh qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy sohani tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar sonini oshirish va eng muhimi aholini ish bilan ta'minlashga erishishga har qanday bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimni tanlab olgan mamlakatlarda ortiqcha kapital tanqisligi muammosi yuzaga keladi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida mamlakatimiz oldida turgan maqsad va vazifalar hamda mintaq va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishda O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberalashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Ijtimoiy siyosat orqaligina shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, oilalarning, har bir alohida inson farovonligini yaxshilashga doir chora-tadbirlarning keng majmuasi amalga oshiriladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – ijtimoiy soha iqtisodiyotini ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari – ijtimoiy sohani boshqarishda davlatning o'rni; ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar; aholi turmush darajasini belgilash; kommunal xo'jalik tarmog'ini, ta'lim va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishni; tibbiy xizmat va turizm iqtisodiyoti; aholini ijtimoiy himoyalash, nafaqat ta'minoti, sug'urta, mehnat bozori va bandlik muammolarini o'rganish.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fanining mohiyati va xususiyatlari

Ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari. Ijtimoiy siyosat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari. O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning

maqsadi va asosiy mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ijtimoiy yo'naltirishning zaruriyati. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish. Ijtimoiy sohaga xos xususiyatlar. Xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash xususiyatlari. Ehtiyojlar turi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti.

2-Mavzu: Ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar

Ijtimoiy sohada baholarning roli va ahamiyati. Narxlarni subsidiyalar orqali davlat tomonidan tartibga solish. Ijtimoiy sohada soliq siyosati, uning mazmun-mohiyati. Soliqqa tortish mexanizmi va uning funksiyalari. Pareto haqqoniylik vaziyati. Turmush farovonligi nazariyasida aholi daromadlarini taqsimlash konsepsiyalari, ularning mohiyati.

3-Mavzu: Uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'i iqtisodiyoti

Uy-joy kommunal xo'jalik tarkibi. Respublika aholisi turmush samaradorligini oshirishda uy-joy, kommunal xo'jaligi xizmatining o'rni. O'zbekiston Respublikasida uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini boshqarish tizimi. Tarmoqni rivojlantirish tartibga solishda mahalliy hokimiyat organlari rolining o'sishi. Uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini moliyalashtirish tizimi, mahalliy budjetlarning ahamiyati. Uy-joy xo'jaligi iqtisodiyoti. Uy-joy xo'jaligini tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Kommunal korxonalar iqtisodiyoti.

Suv xo'jaligini tartibga solishda qo'llaniladigan natura, mehnat, qiyamat ko'rsatkichlari. Iste'molchilarga sotiladigan suv hajmini aniqlash uslubiyati. Suv xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarning aniqlanishi.

4-Mavzu: Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining ahamiyati va zaruriyati. O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishning iqtisodiy tahlili. Mahalliy maishiy xizmat korxonalarida raqobat muhitini yaratish. Maishiy xizmat tarmog'ining barqaror rivojlanish vazifalari. Maishiy xizmat sohasi joylarni xususiyashtirish jarayoni tahlili. O'zbekiston Respublikasida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini boshqarish tizimi. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi xususiyatlari. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishda mavjud muammolar. Tarmoq faoliyatining samaradorligini va xizmatlar sifatini oshirish yo'llari.

5-Mavzu: Ta'lim tizimini tartibga solish. Xalq ta'limini rivojlantirish.

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va uni qabul qilish zaruriyati, maqsadi va vazifalari. Umumiy ta'limni moliyalashtirish manbalari. Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda mahalliy budjetning roli. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limini rivojlantirish tahlili. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni tabiiy etish zaruriyati. Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish vazifalari. Umumiy ta'limni tartibga solishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash uslubiyati.

6-Mavzu: Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish

Oliy o'quv ta'limi rivojlantirish vazifalari. Respublikada bakalavr va magistrnlarni tayyorlash holati. Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirishda budjet va nobudjet manbalari. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, uni

takomillashtirish ahamiyati. Oliy va o'rta muxsus ta'limni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati.

7-Mavzu: Tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlanishi va iqtisodiyoti

O'zbekistonda tibbiyotni rivojlantirish vazifalari. Tibbiy xizmatlarning hozirgi holati tahlili. Respublikada Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi. Tibbiyotda sug'urta tushunchasi, uning mohiyati. O'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari. Tibbiyotni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati, kasalxonalarining moddiy-texnika bazasi. Tibbiyotni moliyalashtirish tizimi. Budjet va nobudjet manbalari. Tarmoqni rivojlantirishda homiylikning roli.

Tibbiyotni rivojlantirishda mavjud muammolar. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish yo'llari. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi. Tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash zaruriyati. Sog'liqni saqlash sohasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish

8-Mavzu: Turizm sohasining iqtisodiyoti

Turizm sohasini rivojlantirish ahamiyati va vazifalari. Turizmni rivojlantirish yo'llari, marketingi va boshqarish. O'zbekistonda turizm sohasining holati. Turizmga xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini kuchaytirish yo'nalishlari.

Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish, uni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash zaruriyati. Mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, ularning assortimentini kuchaytirish, yangi turistik marshrutlarni ochildirish.

Turizm sohasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish. Turizmni rivojlantirishni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati.

Turizm sohasi hisob-kitoblari moliyaviy ko'rsatkichlar: daromadlar, xarajatlar, foyda, rentabellik.

9-Mavzu: Aholini ijtimoiy himoyalash asoslari

Bozor iqtisodiyoti va aholini ijtimoiy himoyalash zaruriyati. Aholini ijtimoiy himoyalashda chet el davlatlari tajribasi. MDH davlatlarida nafaqa islohotlari. Ijtimoiy ta'minotning ahamiyati. Ijtimoiy ta'minot belgilari. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish konsepsiyasi. Ijtimoiy himoyani tartibga solishning nazariy asoslari. Daromadlarni qayta taqsimlashning o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi muammolar. Ijtimoiy himoya qilishni tartibga solishda davlat siyosati va boshqaruvi. Xalq moddiy farovonligining barqaror va uzluksiz o'sishini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish. Respublika aholisiga ijtimoiy yordam turlari. Bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlashga, transport vositalari va nogironlar aravachalarini bepul yoki narxini arzonlashtirish, turli imtiyozlar

10-Mavzu: Ijtimoiy ta'minot yo'nalishlari

Pul shaklidagi va turli ko'rinishdagi transferlar. Pulli transferlarni qo'llash zaruriyati. Kambag'allikni bartaraf etish uchun samarali yordam. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarda muhtoj shaxslarga yordam berish tajribasi. Oilada bolalar soni ko'pligi sharoitida maqbul yordamlari. Pul va natura ko'rinishidagi transferlarning ijobiy va salbiy tomonlari. Pul va natura ko'rinishidagi transferlardan

foydalanishning jahon tajribasi. Mahalla tomonidan ijtimoiy yordam, manzilli ijtimoiy himoya mohiyati. Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash. O'zbekistonda kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy yordam turning manzilli usulidan mahalliy tizim orqali olib borish samaradorligi

11-Mavzu: Nafaqa ta'minotini takomillashtirish

Nafaqa ta'minoti shart-sharoitlari. Nafaqa tizimining takomillashtirish imkoniyatlari. Nodavlat nafaqa jamg'armalarini tashkil etishning istiqbollari. Nafaqa to'lash jarayonida pensiya fondining o'rni va davlat boshqaruvining muhimligi. Nafaqa ta'minotining moliyaviy jihatdan asoslanganligi. Moddiy axborot va kadrlar bazasini yaratish, barcha ijtimoiy hamkorlarning nafaqa ta'minoti tizimini boshqarishdagi ishtiroki. Ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirish. Mos infratuzilmasini tashkil etish (moliyaviy, axborot va xizmat ko'rsatish)

12-Mavzu: Ijtimoiy fondlar va hayriya jamg'armalari

Mamlakat ijtimoiy sug'urtalash tizimini rivojlantirish ahamiyati. Ijtimoiy sug'urtalashni rivojlantirishda nodavlat fondlarining roli, ularni rivojlantirish vazifalari va zaruriyati. Aholini tabaqalantirish jarayonida ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirish. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi. Xalqaro ijtimoiy sug'urta amaliyoti. Xayriya jamg'armalari. Ijtimoiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari huquqlarining kengaytirilishi. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Davlat dasturlaridan o'rin olgan ijtimoiy soha iqtisodiyoti masalalari tahlili va ularning ijrosi.
2. Ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari
3. Ijtimoiy sohani boshqarishda davlatning roli
4. Ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar. Jamiyat turmush farovonligi nazariyasi va daromadlarning tabaqalanishi
5. Uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'ini iqtisodiyoti
6. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish
7. Ta'lim tizimini tartibga solish. O'rta ta'limning rivojlanishi
8. Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlanishi
9. Tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish
10. Turizm soha iqtisodiyoti
11. Aholini ijtimoiy himoyalash va ta'minoti
12. Ijtimoiy ta'minot
13. Nafaqa ta'minoti
14. Ijtimoiy sug'urta va xayriya jamg'armalari
15. Mehnat bozori va bandlik muammolari
16. Insoniy kapital - milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ijtimoiy omillari sifatida.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv

jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-studylar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga qaratiladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarining o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish.

Tavsiya etilgan mustaqil ishlarni mavzularning mavzulari

1. 2017-2021 yillarda mamlakatni yanada rivojlantirish Harakatlari strategiyasidan o'rin olgan ijtimoiy va iqtisodiy masalalar
2. O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari va ijtimoiy sohaning aks ettirilishi
3. Ishsizlik va uni xalok qilish jarayonida ijtimoiy sohaning roli.
4. O'zbekiston ijtimoiy sohani moliyalashtirish tizimi.
5. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish jarayonida davlat va mahalliy byudjetlarni roli.
6. Ijtimoiy soha va soliqlar.
7. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani rivojlanish tahlili
8. O'zbekiston Respublikasida va viloyatlarida uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini rivojlanish tahlili.
9. Ijtimoiy sohani rivojlanishda mahalliy hokimiyat organi roli va vazifalari.
10. Uy-joy, kommunal xo'jalik korxonalarini faoliyatini tartibga solishda mahalla va shirkatlarni roli.
11. O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlanish tahlili.
12. O'zbekistonda tibbiyotni rivojlanish tahlili.
13. Respublikaning ijtimoiy soha tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonining tahlili.
14. Respublikada xalq ta'limining rivojlanishi.
15. Respublikada Oliy va O'rtta maxsus ta'limni rivojlanish tahlili.
16. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish tahlili.
17. O'zbekistonda mehmonxona xo'jaligini rivojlanish tahlili va istiqbollari.
18. Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash muhiti va istiqbollari.
19. Aholini ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish yo'llari.
20. Ijtimoiy sohani ayrim tarmoqlarini rivojlantirishda chet el tajribasi.
21. Insoniy kapitalni baholash ko'rsatkichlarini aniqlash
22. Aholi bandligini ta'minlash vazifalari.

<p>3.</p>	<p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan qo'shimcha ravishda loyiha ishi, esse, tezis yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablarni "ijtimoiy soha iqtisodiyoti" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ijtimoiy sohaning aloxida tarmoqlarini, iktisodiy vaziyatini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini tahdididan o'tkazish usullari vositalari haqida bilim olishlari, shuningdek ijtimoiy soha tarmoqlarixizmat va mahsulotlariga talab va taklifni aniqlash uslubiyatini o'zlashtirish talablarini bilishi kerak; - ijtimoiy sohani moliyalashtirish tizimining asosiy bo'g'ini bilishi haqida; - soliqqa tortish prinsiplarini va soliq stavkalarini aniqlash haqida; - o'rtta va maxsus ta'limni mutaxassislariga talabni aniqlash; kommunal, maishiy xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlash; - aholini ijtimoiy muhofazalash yo'llarini belgilash ko'nikmalariga haqida tasavvurga ega bo'lishi; - ijtimoiy xizmatga bo'lgan ehtiyojini aniqlashni; bozor sharoitida ijtimoiy sohada nafaqa hisoblarini; ijtimoiy soha tarmoqlarini tartibga solish uslubiyatini; ijtimoiy ta'minot va nafaqa fondlarining ish faoliyatiga hisob-kitob qilishni bilishi va ularidan foydalana olishi; - ijtimoiy sohada tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to'lov balans holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish; - ijtimoiy sohani rivojlantirishda ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
<p>4.</p>	<p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stad) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.
<p>5.</p>	<p>VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirishi zarur.</p>

6.	<p style="text-align: center;">ASOSIY ADABIYOTLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ишмухамедов А.Э., Каланова М. З., Сунгатов М.Н. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. – Т.: ТДИУ, 2007. - 209 б. 2. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. Дарслик. /И.ф.д., проф.К.Х.Абдурахмонов тахрири остида. – Т. “Иқтисодий”, 2013, 418 б. 3. Abdurahmonov Q.X., Abduragimov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2011 – 226 bet. 4. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – O'quv qo'llanma. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2012, 332 b. 5. Xamrayeva S.N., Samiyeva G.T. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – Darslik. – Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. – 460 bet. <p style="text-align: center;">QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G.Ya. “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” Uslubiy qo'llanma. T.: TDIU, 2010. -160 bet. 2. Kalanova M.Z. “Местный рынок труда: изучение, оценка, предложения по улучшению использования трудового потенциала”. Кейс-технология. Учебное пособие. Т.: ПГЛУ, 2010. - 24 стр. 3. Кукушина В.С. Социальная защита населения. Учебное пособие - М.: ИНФРАМ, 2007. - 321 с. 4. Жукова М.А. Менеджмент в туристическом бизнесе. Учебное пособие - М.: КНО - РУС, 2005. - 192 с. 5. Филипповский Е.Е. Шмарова Л.В. Экономика и организация гостиничного хозяйства. - М.: ФИС, 2005. - 176 с. 6. R.X.Ergashev, Sh.A.Yuldosheva. Uy-joy kommunal xo'jaliklarini rivojlantirish yo'nalishlari. – Monografiya. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017 yil, 120 b. 7. Xamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. – Monografiya. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2017 – 256 b. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.lex.uz 2. http://www.mineconomi.uz 3. http://www.mf.uz 4. http://www.stat.uz 5. http://www.soliq.uz 6. http://www.cbu.uz 7. http://www.wordbank.org. 8. http://www.cbrd.org. 9. http://www.imf.org
7	<p style="text-align: center;">Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi</p>
8	<p style="text-align: center;">Fan / Modul uchun mas'ul</p> <p style="text-align: center;">G.T.Samiyeva - “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>R.X.Ergashev - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.f.d.</p> <p>T.Ergashev - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.</p>